

TARIX VA ZAMONAVIY MUSIQANING YANGI USLUBLARI

Feruza Omonova

Farg'ona davlat universiteti Musiqa ta'limi va san'at yo'nalishi 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7111594>

Annotatsiya. Ushbu maqolada musiqiy ta'lim tarbiya jarayonida zamonaviylik jixatlarini tadbiq etishning o'ziga xos jixatlari, tarixiy birnecha yuz yillar davomida shakllangan turli musiqa janrlari, janrlarni farqlash kabi asosiy printsiplar, har bir davr oqimlari, san'at janrlari, janr uslublari o'z daminantligiga egaligini musiqaning milliylik asosini ta'minlovchi vositalari yuzasidan fikr mulohazalar keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: musiqa, san'at, ruhiy kechinma, g'oya, tadqiqot, miya faoliyati, ma'naviyat, izlanishlar, mumtoz musiqa.

ИСТОРИЯ И НОВЫЕ СТИЛИ СОВРЕМЕННОЙ МУЗЫКИ

Аннотация. В данной статье рассмотрены особенности применения современных аспектов в процессе музыкального образования, различные музыкальные жанры, сформировавшиеся за несколько сотен лет истории, основные принципы выделения жанров, течения каждой эпохи, жанры искусства, жанровые стили. Обсуждаются мнения об инструментах, обеспечивающих основу национализма.

Ключевые слова: музыка, искусство, духовный опыт, идея, исследование, мозговая деятельность, духовность, исследование, классическая музыка.

HISTORY AND NEW STYLES OF MODERN MUSIC

Abstract. This article discusses the features of the application of modern aspects in the process of music education, various musical genres that have been formed over several hundred years of history, the basic principles for distinguishing genres, the trends of each era, genres of art, genre styles. Opinions are discussed about the tools that provide the basis for nationalism.

Keywords: music, art, spiritual experience, idea, research, brain activity, spirituality, research, classical music.

KIRISH

Musiqa ruhning axloqiy tomoniga ma'lum ta'sir ko'rsatishga qodir va u shunday xususiyatlarga ega ekan, demak, uni yoshlar tarbiyasi uchun fanlar qatoriga kiritish kerakligi aniq.

Bizning butun dunyomiz tovushlar, ranglar, yorug'likdan tashkil topgan mozaikaning ulkan rasmiga o'xshaydi. Musiqiy afzalliklarimizni ochib, biz eng samimiy narsalarni baham ko'ramiz. Musiqa va ruh bizdagi uyg'unlik holati o'rtasidagi chambarchas bog'liqlik g'oyasini aks ettiradi. Uning ta'siriga berilmaslik, unga ergashmaslik mumkin emas. Musiqa-qalbimizning kamonidir, bizning eng yorqin ko'rsatkichimiz ruhiy holatdir, u qalbimizni poklaydi va uyg'otadi, uni ezgulik va nurga ochadi[1;324].

Musiqa – bu vaqt o'tishi bilan nafaqat o'z ahamiyatini yo'qotmagan, balki yana ham talabga ega va ommalashgan san'atning eng qadimiy turlaridan biridir. Musiqa juda ko'p janrlar, turlar, yo'nalishlar va maktablarga bo'linadi. Bir necha yuz yillar davomida rivojlangan, shakllangan klassik musiqa bo'lib uning paydo bo'lishi Yevropa klassitsizmi davri bilan bog'liq. Aynan o'sha paytda san'atdagi ushbu yo'nalish shakllandi. Klassika lotincha "Classicus" - mukammal, namunali degan ma'nolarni bildiradi. Demak mumtozlikning muvozanat, mantiq, ravshanlik, uyg'unlik, va to'liqlik janrlarni farqlash kabi shakllantirilishi mumkin bo'lgan asosiy

tamoillari paydo bo'ldi. Musiqada ularning barchasi faqat opera, oratoriya va kantata kabi janrlarda amalga oshishi mumkin edi. Asta sekin klassik musiqaning musiqiy yo'nalishlari rivojlanib bordi. tobora murakkablashdi, boyib bordi va birlamchi qonunlardan chetga chiqdi. Ko'p asrlik rivojlanish tarixi davomida juda ko'p turli xil janrlar shakllangan. Ushbu janrdagi asarlarda I.S.Bax, V.A.Mosart, L.V.Betxoven, Y.Gaydn, F.Shopen, F.List va xokazo taniqli kompozitorlar klassik musiqani rivojlanishida katta xissa qo'shganlar. Ushbu buyuk kompozitorlarning nomlari butun dunyoga ma'lum. Aksariyat odamlar "mumtoz musiqa" tushunchasining o'zi ushbu madaniyat arboblarning asarlari bilan bog'lashadi.

Bugungi kunda klassik musiqa xanuzgacha mashhur bo'lib, zamonaviy bastakorlar, kompozitorlar orasida mukammal garmoniyasi, ovozlar ichidagi mavzulari, dinamik darajalari va texnik shakllanganligi bilan o'z kuchini mashxurlik va mukammaligini yo'qotmagan. Klassik musiqada ba'zi qiziqarli faktlar aytib o'tilgan. 2015 yili italiyalik olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni isbotladiki, Mosartning kompozitsiyalarini tinglash miyani yanada faol bo'lishga undaydi. Betxovenning ba'zi asarlari uning faoliyatiga teskari ta'sir ko'rsatadi. Miya faolligini oshirish jarayoni "Mosart effekti" deb nomlangan. Janubiy Afrikada yana bir tajriba o'tkazildi, uning maqsadi klassik musiqaning o'simliklarga ta'sirini aniqlash edi. Ma'lum bo'lishicha Vivaldi kuylarini tinglashdan boshlab, ular biroz tezroq o'sishdi va sog'lig'i ham biroz yaxshilandi. Ammo olimlarning ta'kidlashicha, foydali effekt musiqiy asboblardan chiqadigan tebranishlar tufayli erishilgan va kuylar, tovushlarning o'zlari hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi[2, 324].

Ko'p asrlik rivojlanish tarixi davomida juda ko'p turli xil janrlar shakllangan. Ularning ko'plari bugungi kunda mashhur ammo ba'zilar soyada qolmoqda.

Zamonaviy bastakorlar orasida ushbu san'at turining qonunlariga qat'iy amal qiladigan g'ayratli konservatorlar deyarli qolmagan. Ularning deyarli barchasi o'ziga xos narsalarni janrga olib kirishga, uni yanada boyitishga, o'z extiyohlari va zamonaviy haqiqatlarga moslashtirishga intiladilar. Musiqaning barcha xilma – xilliklarini tushunishni o'rganish uchun asar mazmuni, uning obrazli tuzilishini, ma'lum bir uslubga, badiiy yo'nalishga mansubligini tushunishga intilishi kerak.

Zamonaviy musiqa insoniyat o'tmishidan to hozirgi kun uchun ham muhim bo'lgan zamonaviylik fandan san'atgacha, sportdan adabiyotgacha har bir sohada asosiy shakllantiruvchi omillardan biridir. Zamonaviy so'z sifatida lotin tilidan kelib chiqqan bo'lib "hozir" degan ma'noni anglatuvchi, ma'nosi jixatidan "yangi zamonaviy hozirgi kunga mos" tushunchalari to'liq mos kelishini ko'ramiz. Shu nuqtai nazardan zamonaviylik so'nggi olingan tushunchadir.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Zamonaviy musiqa turli oqimlar ta'sirida shakllanib borgan. Bunda modernizm, aleatorika, sanorika texnikasi, dodekafoniya, shovqinli tovushlar va boshqalar misol bo'la oladi. Dodekafoniya zamonaviy musiqaning yangi ko'rinishida ya'ni musiqani muayyan qoidalarga bo'sundurish maqsadida yaratilgan kompozitorlik texnikasi xisoblanib, Dodekafoniya yunoncha: Dodeka-o'n ikki va phone-tovush degan ma'nolarni bildiradi. 1910 yillarda Avstriyada M.Xauer, G.Klayn shuningdek rus kompozitorlari N.Roslavetslar dodekafoniyaga yaqin tarzda asarlar yaratishga uringan. Mikammal dodekafoniyaning qonun qoidalarini avstriya kompozitori A.Shyonberg ishlab chiqdi va ijodiy amaliyotda qo'llagan. 1923 yili fortepiano uchun uchta p'yesa yozadi. Dodekafoniyada asarni tashkil etuvchi kuy va hamohangliklar majmui "seriya" deb atalib, turli balandlikdagi 12 xromatik teng xuquqli tovushning muayyan

izchilligidan tuziladi, bunda registr, gorizental va vertical yo`nalishlar erkin ravishda almashadi. Dodekafoniya ustalari orasida A. Shyonbergning shogirdlari A.Berg, A.Vebern, rus kompozitorlari I,Stravinskiy polyak kompozitori V.Lyutoslavskiy, Italyan mualliflari L.Dallapikola, L.Nono, yapon kompozitorlari Yo.Matsudayra, T.Mayudzumi, K.Fukusimalar tanilgan va dodekofoniya qonun qoidalariga asoslangan holda asarlar yaratganlar.

TADQIQOT NATIJALARI

O`zbekiston kompozitorlaridan F.Yanov Yanovskiy, M Tojiyev, N.Zokirov, keyinchalik M.Maxmudov, N.G`iyosov va boshqa kompozitorlar dodekafoniya ayrim xususiyatlaridan foydalanishgan. Zamonaviy musiqani rok musiqasi kabi ulkan madaniy qatlamsiz tasavvur etib bolmaydi. Ushbu musiqiy yo`nalishning rivojlanishi bluz, rok-n-rolldan kelib chiqqan holda yetmish yildan kamroq vaqtni oldi va hozirda u katta musiqiy o`rinni egallab, tobora ko`proq yangi novdalarni keltirib chiqarmoqda[2,42].

Zamonaviy musiqada, shovqinli musiqaning ifodali ishlatilishi bilan tavsiflanadigan musiqa toifasi, shovqin ichida musiqiy kontekst bilan ifodalanadi. Ushbu turdagi musiqa, odatiy musiqiy amaliyotlarda musiqiy va musiqiy bo`lmagan tovush o`rtasidagi farqni rad etishga intiladi. Ayrim musiqalarda akustik yoki elektron shaklda hosil bo`lgan shovqin, ham an`anaviy, ham noan`anaviy musiqa asboblari bo`lishi mumkin. Unga musiqiy bo`lmagan jonli mashina tovushlari kiritilishi mumkin vokal texnikasi,qayta ishlangan ovoz yozuvlar,kompyuter tomonidan yaratilgan shovqin shunga o`xshash boshqa tasodifiy ovozlardan foydalanish mumkin.

Xuddi shu tarzda erta modernistlar tomonidan ilhomlangan sodda san`at, ba`zi zamonaviy raqamli san`at, shov-shuv musiqachilari magnitafon kabi audiotexnologiyalardan foydalanishgan. Ko`pgina rassomlar nafaqat o`zlarining shovqinlarini yaratadigan qurilmalarini, balki o`zlarining maxsus yozib olish uskunalarini olib yurishga odatlanadilar.

MUHOKAMA

Luidji Russolo (1916) italiyalik rassom shovqinlar san`ati zamonaviy odamlarga yanada murakkab tovushlarni qadrlash uchun ko`proq imkoniyat berganligini ta`kidladi. Rusollo an`anaviy musiqani cheklovchi deb topdi va shovqinli musiqani kelajakda uning o`rmini bosuvchi deb bildi. U shovqin chiqaradigan bir qator qurilmalarni ishlab chiqdi va orkestr ular bilan chiqish qildi. “Shaharning uyg`onishi” va “Samolyotlar va avtomobillar uchrashuvi” nomli asarlar 1914 yilda ijro etildi. Tinglovchilar tomonidan qattiq norozilik bilan kutib olindi. Daniyalik shovqin va musiqa nazariyotchisi Torben Sangildning shovqinning uchta asosiy ta`rifini beradi: Musiqiy akustika, (unga asoslangan) kommunikativ, (xato ko`rsatish) sub`yektivlik (bir kishi uchun shovqin bo`lgan narsa boshqasiga mazmunli bo`lishi mumkin) “Kecha yoqimsiz deb hisoblangan ovoz bugun yoqimsiz emas” - deb ta`kidlaydi Torben Sangild[2,48].

Zamonaviy musiqa oqimlari borasida so`z borar ekan, aleatorika oqimi va sanorika texnikasi ham shakllandi.

Aleatorika lotincha alea-tasodifiylik so`zidan olingan bo`lib XX asr ikkinchi yarmida Yevropa kompozitorlik ijodida dodekafoniyaning qat`iy qonun–qoidalariga qarshi yuzaga kelgan oqim xisoblanadi. Uning zamirida tasodifiylikdan ijodiy foydalanish yotadi. Aleatorika asarlarida kompozitorlar ba`zan ijrochilarning mahorat imkoniyatlaridan ham unumli foydalanishadi. Shu bois hozirgi kungacha

1 Mexanik aleatorika (qat`iy)

2 Badihaviy aleatorika

3 Nazoratli aleatorika turlari oda tusiga kirgan.

Bularning birinchisi va ikkinchisi P.Bulez va K.Shtokxauzen tomonidan 1950 yillarning ikkinchi yarmida, uchinchisi esa 1960 yillar boshida V.Lyutoslavskiy larning izlanishlari natijasida joriy etilgan.

1937-yilda yozilgan Keydj musiqiy bo`lmagan materiallardan foydalanishga qiziqishini bildirdi va u shovqin deb atagan topilgan tovushlarni va musiqiy tovushlarni bir-biridan ajratishga kirishdi. Bunga quyidagilar kiradi; yomg`ir, radiokanallar orasidagi statik ovozlar va soatiga ellik mil tezlikda harakatlanadigan yuk mashinasi. Keydjning fikricha barcha tovushlar ijodiy foydalanish imkoniyatiga ega. Uning maqsadi ovozli muhit elementlarini tutish va boshqarish hamda ovozli materiallarga ma`no berish uchun ovozli tashkil etish usulini qo`llash edi. 1952 yilda Keydj aleatorik lenta asosida kompozitsiya usullarini qo`lladi. Shu yilda u o`zining eng yuqori darajasiga ko`tarildi. "4'33" "Jim parcha" nomli asari prem`yerasi Devid Tudor tomonidan ijro etildi. Tomoshabinlar uni pianino oldida o`tirganini va pianino qopqog`ini yopayotganini ko`rishdi. Biroz vaqt o`tgach, u hech qanday nota ijro qilmasdan qopqog`ini ochdi u yana hech narsa ijro qilmadi. Ushbu holat uch marotaba takrorlandi asar nota ijro etilmasdan o`tib ketdi, aslida Tudor ovoz chiqarmagan holda hisobni varaqlayotganda sekundomerning uzunligini aniqladi. Shundagina tomoshabinlar Keydjning nima talab qilganini anglay olishdi; sukunat degan narsa yo`q, shovqin har doim sodir bo`lib, musiqiy tovush chiqaradi. 1960 yil 8-mayda oltita yosh yapon musiqachilari shovqinli musiqaning ikkita lenta yozuvlari bilan Ongaku guruhini tashkil etdi [3,122].

XULOSA

Demak bundan ko`rishimiz mumkinki, ushbu shakllangan janrlarda har qanday ohang, shovqin chiqargan ovozlar xattoki sukunat ham musiqiy tovush chiqaradi degan tushunchalar izoxlab o`tildi va kompozitorlar tomonidan ijro etildi. Qushlarning ohangdor sayrash, daraxtlarning sokin shivirlashi, tog` daryolarning shovqini insoniyatga azaldan hamroh bo`lib kelgan. Odamlar tabiiy musiqa uyg`unligida ulg`ayib, vaqt o`tishi bilan tabiatga taqlid qilib musiqa chalishni boshladilar. Ular musiqiy asarlar yaratishni o`z zimmalariga oldilar va musiqa durdonalarini yaratishda misli ko`rilmagan yuksaklikka erishdilar.

REFERENCES

1. Q.Nik, Y.Rob "Shovqin" Simli primerlar: Zamonaviy musiqa qo'llanmasi. London: T.: 2009.
2. Atton Kriss "Muxlislar nutqi shovqinli musiqaning janr sifatida qurilishi" Ommabop musiqa tadqiqotlar ijurnali, T.: 2011. 23-jild, 3-son, 324-42-betlar.
3. Olbrayt Doniyor. "Modernizm va musiqa: Manba antalogiyasi". Chikago, "Chikago universiteti matbuoti", T.:2004. 122-bet
4. F.N.Xalilov. "Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini cholg'u-ijrochilik tayyorlashning didaktik asoslari" Diss avtoreferati....pedagogika fanlari doktori. T.: 2006. 48-bet.
5. Kiyamov N.S. "Musiqiy madaniyat tarbiyasini o'rganishga yo'naltirilgan nazariy tadqiqotlarni olib borish xususida". "Sharq" nashriyoti. T.: 2009. 112-bet.
6. John Cage "Musiqaning kelajagi": Credo, T.: 1937.137-bet.
7. Zamonaviy san`atdagi hujjatli monografiyalar (tahrirlangan) Richard Kostenlanets, Praeger Publishers. T.: 1970. 25-38-betlar.
8. Z,Yunusova "Musiqqa o`qitish metodikasi" T.: 1988. 247-bet.
9. Lola Abidova "Jaz Tarixi" Toshkent. T.: 2007-yil. 56-bet